

## SUG'URTA MUNOSABATLARI XUSUSIDA QISQACHA FIKRLAR

Kamolova Shaxlo Tirkashevna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi, 3-darajali yurist.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11128079>

*Annotation.* Ushbu maqolada muallif tomonidan sug'urta bilan bog'liq munosabatlar, sug'urta tushunchasi, ayrim qonun hujjatlarimizda, jumladan, Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunida belgilangan qoidalar xususida qisqacha fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sug'urta, iqtisodiy kategoriya, sug'urta qildiruvchi, sug'urtalovchi, naf ko'ruchchi, ixtiyoriy sug'urta, majburiy sug'urta, qayta sug'urta.

### BRIEF THOUGHTS ON INSURANCE RELATIONS

*Abstract.* In this article, the author briefly points out the relationship with insurance, the concept of insurance, the provisions established in some of our legislation, including the Constitution, the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the law of the Republic of Uzbekistan on insurance activities.

**Key words:** insurance, economic category, insurer, insurer, beneficiary, voluntary insurance, compulsory insurance, reinsurance.

### КРАТКИЕ МЫСЛИ О СТРАХОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

**Аннотация.** В данной статье автором кратко рассмотрены отношения, связанные со страхованием, понятие страхования, правила, установленные в некоторых наших законодательных актах, в том числе в Конституции, Гражданском кодексе Республики Узбекистан, Законе Республики Узбекистан "О страховой деятельности".

**Ключевые слова:** страхование, экономическая категория, страхователь, страховщик, бенефициар, добровольное страхование, обязательное страхование, перестрахование.

Bugungi kunda sug'urta munosabatlari jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarning bir turi sifatida ancha rivojlangan, madaniy tus olgan, o'zining qonunchilik mexanizmiga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ma'lumki, sug'urta jismoni va yuridik shaxslarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi samarali vosita biri sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan.

Avvalo, sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlari tizimida salmoqli ahamiyat kasb etadi va moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriylar bilan chambarchas bog'liqidir.

Odatda, moliya yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida vujudga keladigan maqsadli pul fondlarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlarini ifodalasa, kredit aholi, korxona, tashkilotlar ixtiyoridagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni jalb etish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlarining majmui hisoblanadi. Sug'urta deganda esa oldindan bilib bo'lmaydigan tabiiy va boshqa hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rildigan zararlarning o'rnini qoplash bilan bog'liq maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisi tushuniladi.

prof. H.Sobirov ilmiy adabiyotlarda sug'urta tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "ko'pchilik adabiyotlarda sug'urta so'zi xavf-xatar, dahshat, vahima ma'nosida ishlatiladi, chunki

ko'rsatilgan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida jamiyat hayotiga moddiy zarar yetkaziladi. Lekin sug'urta deganda ana shu ruhiy holatlar emas, balki bular orasida vujudga kelgan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda zararlar va ularni kuchini qirqishga qaratilgan tadbirlar, zarar natijasida vujudga kelgan kamomadning o'rnini to'ldirish, bu yo'nalishda yuzaga keladigan sug'urtalovchi tashkilotlar va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlari ko'zda tutiladi”<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabr O'RQ-730-son “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasi<sup>2</sup> da sug'urta bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardagi asosiy tushunchalar xususida ta'riflar keltirilgan va unga ko'ra, sug'urta deganda muayyan voqeа (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlari majmui tushuniladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining ham bir qator moddalari, jumladan, 914-961-moddalari bevosita sug'urta bilan bog'liq fuqarolik huquqiy munosabatlari tartibga soladigan normalarni belgilab beradi.

Sug'urta faoliyati bu sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani va qayta sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Demak bu munosabat shartnomada tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Qonunchilikka asosan sug'urta ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslarga, ularning roziligi bilan ko'rsatiladi. Ixtiyoriy sug'urta turlariga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki sug'urtasi, transport vositalari sug'urtasi, hayot sug'urtasi, moliyaviy va tadbirkorlik risklari sug'urtasini misol tariqasida keltirish mumkin. Ixtiyoriy sug'urtadan farqli ravishda majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlariga asosan o'tkaziladi va bunda ko'rsatilgan yuridik hamda jismoniy shaxslarning manfaati ularning irodasidan qat'i nazar, majburiy sug'urta qilinadi.

Sug'urta turi deganda sug'urta tashkiloti tomonidan bir yoki bir nechta sug'urta klasslari doirasida ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan aniq sug'urta xizmati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabr O'RQ-730-son “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuniga asosan sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

- hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnomada bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta summalarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini qamrab oladi);

- umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'limgan boshqa sug'urta turlari).

<sup>1</sup> H.Sobirov. Sug'urta: 100 savol va javob.-T.: “Mehnat” nashriyoti, 1998 yil. 8-9-betlar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabr O'RQ-730-son “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuni.

<https://lex.uz/docs/5739117?ONDATE=25.02.2022%2000>.

Sug‘urta bilan bog‘liq qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin. Sug‘urta bilan bog‘liq masalalar asosan konstitutsiyaning mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari, davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minalash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni nazarda tutgan moddalari mazmunidan anglashiladi.

Biroq Konstitutsiyamizning 48-moddasida “Davlat ... tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish... choralarini ko‘radi”<sup>3</sup>- deb belgilab qo‘ylgan bo‘lib, bunda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ining sug‘urtalanishi e’tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 916-moddasida sug‘ortalashga yo‘l qo‘yilmaydigan manfaatlар to‘g‘risidagi so‘z yuritilgan, ya’ni g‘ayriqonuniy manfaatlarni sug‘ortalashga yo‘l qo‘yilmaydi, qimor, lotereyalar va garov o‘yinlarida ishtirok etishda ko‘riladigan zararni sug‘ortalashga yo‘l qo‘yilmaydi, garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo‘lgan xarajatlarni sug‘ortalashga yo‘l qo‘yilmaydi va sug‘urta shartnomalari mazmunida yuqorida aytilgan qoidalar ifolangan bo‘lsa, o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi.

Fikrlarimiz so‘ngida aytish lozimki, sug‘urta qilish yo‘li bilan to‘plangan sug‘urta mukofotlarini katta qismi sug‘urta zahiralarida saqlanadi va u sug‘urta tashkilotlarini iqtisodiyotni har xil tarmoqlarini investitsiya resurslari bilan ta’milovchi yirik investorga aylantiradi. Sug‘urta himoya vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta’milovchi omillardan biridir ham. Shu bois kutilmagan salbiy voqeа-hodisalarning sodir bo‘lishi natijasida ko‘rilgan zararni o‘rnini qoplash uchun insonlar o‘z hayotlarini baxtsiz hodisalardan, korxona va tashkilotlar esa tabiiy hamda boshqa xavf-xatarlarning ro‘y berish oqibatlaridan sug‘urta qilishadi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasning Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189>.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabr O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5739117?ONDATE=25.02.2022%2000>.
4. H.Sobirov. Sug‘urta: 100 savol va javob.-T.: “Mehnat” nashriyoti, 1998 yil.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.